



## NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



### 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 32 824,7 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 30 374,6 mlrd. so'mni (104,6 %), o'rmon xo'jaligi- 2 120,4 mlrd. so'mni (102,6 %), baliqchilik xo'jaligi - 329,7 mlrd. so'mni (105,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Namangan viloyatining ulushi 7,7 % ni tashkil etdi.



Namangan viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati

01

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar-**104,6 %**

02



O'rmon xo'jaligi - **102,6 %**

03




Baliqchilik xo'jaligi - **105,5 %**


## Ma'lumot uchun

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Uchqo'rg'on (8,3 %) va Yangiqo'rg'on (7,0%) i tumanlar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo'yicha viloyatada yetakchi o'rinlarni egalladi.

## Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar




## Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 92,5 % i -dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar, 6,5 % i - oʻrmon xoʻjaligiga, 1,0 % i - baliqchilik xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi. 57,0% i - dehqonchilkg, 41,6 % i - chorvachilkg 1,4 % i - ovchilk va qishloq xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi.




## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Yangiyoʻrgʻon tumani (5 189,6 mlrd. soʻm) va Uchyoʻrgʻon (2 921,2 mlrd. soʻm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kosonsoy (1759,0 mlrd. soʻm), Mingbuloq (2 222,7 mlrd. soʻm) va Norin tularini (2 252,1 mlrd. soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

Viloyat koʻrsatkichidan yuqori oʻsish surʼatlari Uchyoʻrgʻon (108,3 %) Yangiyoʻrgʻon (107,0 %) Norin tumani (106,0 %) tumanlarida kuzatildi. Namangan. Sh (100,1 %), Kosonsoy tumani (100,6 %) esa aksincha oʻsish surʼatlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 29 942,5 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 17 328,7 mlrd. so'mni (105,4 %), chorvachilik mahsulotlari- 12 613,8 mlrd. so'mni (103,1 %) tashkil qildi.


### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**57,9%**  
Dehqonchilik  
mahsulotlari



**42,1**  
Chorvachilik  
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari  
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida  
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 57,1 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 38,3 % i - fermer xo'jaliklariga, 4,6 % i - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2023-yilning yanvar- dekabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yangiqo'rg'on tumanida (48,7 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Namangan shahrida (95,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Pop tumanida (17,5 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Namangan shahrida (0,0 %), dehqon tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Pop tumanida (45,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Norin tumanida (0,5 %) qayd etildi.




## Dehqonchilik


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 17 328,7 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,4 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 57,9 % ni tashkil qildi.

### Donli ekinlar


Hajmi, t.



Oʻsish surʻati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 678 090 t. donli ekinlar (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,4 % ga koʻp) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, jami don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 84,4 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha  
**donli ekinlar yetishtirish**  
hajmi, tonna






Namangan viloyati bo'yicha  
**donli ekinlar yetishtirish**  
(o'sish sur'ati, % da)




## Sabzavotlar


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 989 364 t. sabzavotlar (2022- yilning yanvar- dekabrga nisbatan 4,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 59,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




### Namangan viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish (tonna)








Namangan viloyati bo'yicha  
sabzavotlar yetishtirish  
(o'sish sur'ati, % da)




## Kartoshka


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 336 991 t. kartoshka (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 65,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha  
**kartoshka** yetishtirish  
hajmi, tonna




## Poliz


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 134 400 t. poliz (2022- yilning yanvar-dekabr ga nisbatan 4,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 61,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha  
**poliz yetishtirish**  
hajmi, tonna






## Meva va rezevorlar


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 366 682 t. meva va rezevorlar (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezevorlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezevorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 56,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha  
**meva va rezevorlar yetishtirish**  
hajmi, tonna




## Uzum


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 151 669 t. uzum (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 51,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Namangan viloyati bo'yicha  
**uzum yetishtirish**  
hajmi, tonna




## Chorvachilik



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 12 613,8 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 42,1 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 175,9 ming t. go'sht (2022- yilning yanvar - dekabrga nisbatan 4,1 % ga ko'p), 774,4 ming t. sut (2,3 % ga ko'p), 499,3 mln. dona tuxum (2,0 % ga ko'p), 1416,0 t. jun (1,1 % ga kam) ishlab chiqarildi va 4672,5 t. baliqchilik (39,2 % ga ko'p) ovlandi




### Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 175,9 ming t. go'sht (2022- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 4,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 79,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Namangan viloyati bo'yicha  
go'sht yetishtirish  
(tirik vaznda tonna)






Namangan viloyati bo'yicha  
yetishtirilgan go'sht o'sish  
sur'ati, %da




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 774,4 ming t. sut (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha  
**sut** yetishtirish hajmi tonna








Namangan viloyati bo'yicha  
yetishtirilgan sut o'sish  
sur'ati, %da




### Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 676,5 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar- dekabrga nisbatan 3,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 46,4 % i fermer xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keldi.




Namangan viloyati bo'yicha  
olingan **tuxum**  
hajmi, ming dona






Namangan viloyati bo'yicha  
yetishtirilgan tuxum o'sish  
sur'ati, %da




## Baliqchilik


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 15 434 t. (2022- yilning yanvar- dekabrga nisbatan 5,8 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 74,3 % i fermer xo'jaligi hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.




Namangan viloyati bo'yicha  
ovlangan **baliqchilik**  
hajmi, tonna





### Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,9 % i fermer xo'jaliklariga, 91,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 15,0 % i fermer xo'jaliklariga, 84,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 38,1 % i fermer xo'jaliklariga, 24,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 37,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2024- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 780,4 ming taga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 20,6 ming taga (2,7 %) ko'paydi.

### Yirik shoxli qoramollar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.




Namangan viloyati bo'yicha  
**yirik shoxli qoramollarning**  
umumiy bosh soni,  
ming bosh




2024- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 265,0 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni - 5,4 ming taga (2,1 %) ko'paydi

## Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, sigirlarning 89,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Namangan viloyati  
bo'yicha **sigirlarning**  
umumiy bosh soni,  
ming bosh




2024- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 852,1 ming taga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni - 27,3 ming taga (3,3 %) ko'paydi.

## Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 92,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Namangan viloyati bo'yicha  
**qo'y va echkilarning**  
umumiy bosh soni,  
ming bosh







2024- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 7 203 taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 200 taga (2,9 %) ko'paydi.

## Otlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, otlarning 84,5 % i dehqon va xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Namangan viloyati  
bo'yicha otlarning  
umumiy **bosh soni**, bosh




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 7008,5 ming taga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni - 602,5 ming taga (9,4 %) ko'paydi.

### Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**




**Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 38,1 % i fermer xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Namangan viloyati bo'yicha  
**parrandalarning**  
umumiy bosh soni,  
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 69-227-84-82  
• 69-227-84-83